

IV. TOSHKENT VILOYATIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR


2025- yil yanvar-iyun

1. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar
2. Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va o‘shish sur‘ati
3. Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik va takror ishlab chiqarish tarkibi
4. Toshkent viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar
5. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlar
6. Toshkent viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish
7. Toshkent viloyatida bajarilgan qurilish ishlari
8. Asosiy kapitalga investitsiyalar va qurilish ishlari bo‘yicha usbuliy tushuntirishlar

1. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar

So‘nggi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko‘rsatmoqdaki, u deyarli 3,4 barobarga ko‘paydi, shuningdek, 2025- yil yanvar-iyun oylarida 2024- yilning mos davriga nisbatan 6 804,5 mlrd so‘mga ko‘p investitsiyalar o‘zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi
(yanvar-iyun)




Iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirishga 2025- yil yanvar-iyun oylarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 40 687,6 mlrd so‘m miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, bu ko‘rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 112,0 % ni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

| | Hajmi, mlrd so'm | O'sish sur'ati % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | |
|--|---------------------|---------------------------|---------------------------------|--------------|
| | | | 2024- y. | 2025- y. |
| JAMI: | 40 687,6 | 112,0 | 100,0 | 100,0 |
| Markazlashgan investitsiyalar | 2 419,6 | 75,9 | 10,0 | 5,9 |
| Respublika budjeti | 836,7 | 74,3 | 3,5 | 2,1 |
| Suv va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi | 48,8 | 30,4 | 0,5 | 0,1 |
| Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi | 0,0 | 0,0 | 2,6 | 0,0 |
| Kafolat ostida xorijiy kreditlar | 1 534,1 | 134,1 | 3,4 | 3,8 |
| Markazlashmagan investitsiyalar | 38 268,0 | 115,4 | 90,0 | 94,1 |
| Korxonalar o'z mablag'i | 5 876,1 | 99,1 | 17,4 | 14,5 |
| Bank krediti (<i>boshqa qarz mablaglarini qo'shgan holda</i>) | 809,5 | 105,7 | 3,2 | 2,0 |
| To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar | 29 172,9 | 120,6 | 62,7 | 71,7 |
| <i>shundan:</i> | | | | |
| <i>To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar</i> | <i>17 496,5</i> | <i>186,7</i> | <i>27,2</i> | <i>43,0</i> |
| <i>Boshqa va kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar</i> | <i>11 676,4</i> | <i>78,8</i> | <i>35,5</i> | <i>28,7</i> |
| Aholi mablag'i | 2 409,5 | 101,0 | 6,7 | 5,9 |

2025- yil yanvar-iyun oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan hajm **2 419,6** mlrd so'mni va 2024- yilning mos davriga nisbatan **75,9 %** ni tashkil etdi. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi esa **5,9 %** ga yetdi.

Yillar bo'yicha markazlashgan va markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi (yanvar-iyun, % da)



2. Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va o'sish sur'ati

| | Hajmi, mlrd so'm | O'sish sur'ati, % da | shu jumladan aholi jon boshiga | |
|--------------------------|---------------------|----------------------------|-----------------------------------|-------------------------|
| | | | hajmi, ming so'm | o'sish sur'ati, % da |
| Viloyat bo'yicha: | 40 687,6 | 112,0 | 13 035,5 | 110,0 |
| <i>shaharlar:</i> | | | | |
| Nurafshon | 1 368,3 | 102,4 | 23 631,6 | 100,1 |
| Olmalik | 7 236,0 | 64,5 | 48 434,0 | 63,5 |
| Angren | 1 367,5 | 52,5 | 7 344,2 | 51,7 |
| Bekobod | 1 288,9 | 85,2 | 12 113,6 | 84,0 |
| Ohangaron | 660,0 | 97,9 | 15 639,7 | 96,3 |
| Chirchiq | 2 598,9 | 129,1 | 14 749,9 | 127,2 |
| Yangiyo'l | 1 001,4 | 2,5 m. | 11 431,9 | 2,5 m. |
| <i>tumanlar:</i> | | | | |
| Oqqo'rg'on | 819,4 | 112,5 | 7 162,8 | 110,7 |
| Ohangaron | 2 805,6 | 183,1 | 24 740,8 | 180,3 |
| Bekobod | 358,4 | 96,7 | 2 121,9 | 95,3 |
| Bo'stonliq | 2 293,6 | 2,1 m. | 12 856,5 | 2,1 m. |
| Bo'ka | 2 447,9 | 4,3 m. | 17 841,5 | 4,3 m. |
| Quyichirchiq | 1 376,3 | 159,1 | 11 653,6 | 156,8 |
| Zangiota | 2 078,2 | 119,6 | 11 754,5 | 116,5 |
| Yuqorichirchiq | 2 314,6 | 82,6 | 16 265,7 | 81,2 |
| Qibray | 1 222,4 | 58,7 | 6 809,9 | 57,6 |
| Parkent | 951,4 | 5,6 m. | 5 207,3 | 5,5 m. |
| Piskent | 2 456,5 | 4,8 m. | 23 688,8 | 4,7 m. |
| O'rta Chirchiq | 1 133,2 | 125,1 | 8 031,2 | 122,3 |
| Chinoz | 889,7 | 119,8 | 5 982,9 | 117,7 |
| Yangiyo'l | 2 589,4 | 175,2 | 12 643,9 | 171,9 |
| Toshkent | 1 430,0 | 142,3 | 6 962,1 | 138,6 |


Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida yuqori o'sish ko'rsatkichlari Parkent (*o'tgan yilga nisbatan 5,6 m. o'sgan*), Piskent (*4,8 m.*), Bo'ka (*4,3 m.*), Bo'stonliq (*2,1 m.*) tumanlari va Yangiyo'l (*2,5 m.*) shahriga to'g'ri keldi.

**Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning
moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi**

| | Jami investitsiyalar, mlrd so'm | shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan % da) | | | | | | |
|--------------------------|------------------------------------|--|---|-------------------|--------------------------------|--|---------------------------------------|---|
| | | Respublika budjeti | Korxonalar va tashkilot o'z mablag'i | Aholi mablag'lari | Xorijiy investitsiya va kredit | Suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi | Tiklanish va taraqqiyot jamgarmasi | Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari |
| Viloyat bo'yicha: | 40 687,6 | 2,1 | 14,4 | 5,9 | 75,5 | 0,1 | 0,0 | 2,0 |
| <i>shaharlar:</i> | | | | | | | | |
| Nurafshon | 1 368,3 | 18,1 | 12,0 | 20,8 | 49,0 | 0,0 | 0,0 | 0,1 |
| Olmaliq | 7 236,0 | 0,3 | 25,5 | 1,7 | 72,3 | 0,1 | 0,0 | 0,1 |
| Angren | 1 367,5 | 2,2 | 15,1 | 5,2 | 74,4 | 0,0 | 0,0 | 3,1 |
| Bekobod | 1 288,9 | 0,2 | 20,4 | 12,2 | 67,1 | 0,0 | 0,0 | 0,1 |
| Ohangaron | 660,0 | 0,1 | 30,5 | 9,2 | 59,4 | 0,0 | 0,0 | 0,8 |
| Chirchiq | 2 598,9 | 1,8 | 15,2 | 5,4 | 74,5 | 0,0 | 0,0 | 3,1 |
| Yangiyo'l | 1 001,4 | 3,9 | 2,6 | 35,5 | 57,6 | 0,0 | 0,0 | 0,4 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | | | |
| Oqqo'rg'on | 819,4 | 0,7 | 7,2 | 6,7 | 85,2 | 0,0 | 0,0 | 0,2 |
| Ohangaron | 2 805,6 | 1,9 | 5,9 | 3,0 | 88,2 | 0,1 | 0,0 | 0,9 |
| Bekobod | 358,4 | 0,6 | 12,1 | 15,0 | 71,1 | 0,0 | 0,0 | 1,2 |
| Bo'stonliq | 2 293,6 | 1,0 | 8,2 | 2,1 | 87,9 | 0,4 | 0,0 | 0,4 |
| Bo'ka | 2 447,9 | 0,6 | 0,9 | 1,9 | 95,6 | 0,3 | 0,0 | 0,7 |
| Quyichirchiq | 1 376,3 | 0,6 | 5,2 | 5,3 | 88,9 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Zangiota | 2 078,2 | 2,1 | 11,9 | 1,8 | 64,9 | 0,1 | 0,0 | 19,2 |
| Yuqorichirchiq | 2 314,6 | 0,9 | 12,3 | 2,2 | 83,9 | 0,1 | 0,0 | 0,6 |
| Qibray | 1 222,4 | 4,7 | 15,0 | 4,6 | 72,2 | 0,5 | 0,0 | 3,0 |
| Parkent | 951,4 | 8,9 | 11,7 | 3,8 | 71,1 | 1,4 | 0,0 | 3,1 |
| Piskent | 2 456,5 | 0,3 | 4,0 | 7,3 | 86,6 | 0,0 | 0,0 | 1,8 |
| O'rta Chirchiq | 1 133,2 | 1,3 | 36,3 | 4,6 | 54,1 | 0,0 | 0,0 | 3,7 |
| Chinoz | 889,7 | 2,9 | 15,3 | 14,7 | 65,0 | 0,0 | 0,0 | 2,1 |
| Yangiyo'l | 2 589,4 | 0,1 | 3,8 | 13,1 | 82,8 | 0,0 | 0,0 | 0,2 |
| Toshkent | 1 430,0 | 0,7 | 10,9 | 50,9 | 36,0 | 0,0 | 0,0 | 1,5 |

3. Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik va takror ishlab chiqarish tarkibi

Toshkent viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlariga **19,2** trln so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning **47,2 %** ini tashkil etdi, mashina, uskuna, inventar ishlari bo'yicha **17,1** trln so'm (*jami investitsiyalardagi ulushi 42,0 %*) va boshqa xarajatlarga **4,4** trln so'm (*10,8 %*) o'zlashtirildi.



Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi

| | Jamiga nisbatan, % da | | |
|--------------------------|-----------------------|--|---------------------|
| | yangi qurilish | kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya | boshqa yo'nalishlar |
| Viloyat bo'yicha: | 73,9 | 11,3 | 14,8 |
| <i>shaharlar:</i> | | | |
| Nurafshon | 73,0 | 21,8 | 5,2 |
| Olmaliq | 95,2 | 4,4 | 0,4 |
| Angren | 74,8 | 7,3 | 17,9 |
| Bekobod | 62,1 | 37,5 | 0,4 |
| Ohangaron | 26,2 | 70,5 | 3,3 |
| Chirchiq | 73,4 | 15,0 | 11,6 |
| Yangiyo'l | 91,7 | 7,2 | 1,1 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Oqqo'rg'on | 43,7 | 44,4 | 11,9 |
| Ohangaron | 84,4 | 5,0 | 10,6 |
| Bekobod | 16,1 | 79,5 | 4,4 |
| Bo'stonliq | 83,6 | 2,0 | 14,4 |
| Bo'ka | 95,3 | 3,5 | 1,2 |
| Quyi Chirchiq | 88,1 | 3,7 | 8,2 |
| Zangiota | 45,9 | 8,8 | 45,3 |
| Yuqori Chirchiq | 95,3 | 2,5 | 2,2 |
| Qibray | 47,8 | 37,8 | 14,4 |
| Parkent | 25,6 | 19,5 | 54,9 |
| Piskent | 20,0 | 4,6 | 75,4 |
| O'rta Chirchiq | 88,2 | 8,3 | 3,5 |
| Chinoz | 75,9 | 16,2 | 7,9 |
| Yangiyo'l | 71,3 | 1,3 | 27,4 |
| Toshkent | 78,4 | 16,6 | 5,0 |

4. Toshkent viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalari natijasida ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan **9 585,7** mlrd so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning **23,6** foizi o'zlashtirildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

| | Hajmi, mlrd so'm | umumiy hajmga nisbatan, % da | |
|--|---------------------|------------------------------|--------------|
| | | 2024- y. | 2025- y. |
| Asosiy kapitalga investitsiyalar – jami | 40 687,6 | 100,0 | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 4 370,0 | 8,8 | 10,7 |
| Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | 7 794,0 | 34,0 | 19,2 |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 9 585,7 | 24,1 | 23,6 |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash | 6 132,2 | 10,6 | 15,1 |
| Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish | 871,4 | 2,3 | 2,1 |
| Qurilish | 3 910,4 | 2,3 | 9,6 |
| Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash | 790,5 | 1,3 | 1,9 |
| Tashish va saqlash | 1 582,9 | 2,5 | 3,9 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 316,7 | 0,2 | 0,8 |
| Axborot va aloqa | 280,1 | 0,4 | 0,7 |
| Moliyaviy va sug'urta faoliyati | 10,3 | 0,0 | 0,0 |
| Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar | 253,7 | 0,5 | 0,6 |
| Professional, ilmiy va texnik faoliyat | 256,0 | 1,7 | 0,6 |
| Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish | 1 101,1 | 0,7 | 2,7 |
| Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot | 634,5 | 1,0 | 1,6 |
| Ta'lim | 157,9 | 0,8 | 0,4 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 227,1 | 1,5 | 0,6 |
| San'at, ko'ngil ochish va dam olish | 134,9 | 0,6 | 0,3 |
| Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish | 2 278,2 | 6,7 | 5,6 |


5. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

2025- yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar 2 371,0 mln dollar yoki 30 707,0 mlrd soʻmni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiya va kreditlar, (mlrd soʻm)

| | Toʻgʻridan- toʻgʻri xorijiy investitsiyalar | OʻzR kafolati ostida xorijiy kreditlar | Kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar |
|--------------------------|---|---|---|
| Viloyat boʻyicha: | 29 172,9 | 1 534,1 | 9 106,7 |
| <i>shaharlar:</i> | | | |
| Nurafshon | 670,0 | 1,6 | - |
| Olmaliq | 5 232,2 | - | 4 105,6 |
| Angren | 1 004,1 | 14,4 | - |
| Bekobod | 863,6 | - | 454,5 |
| Ohangaron | 392,0 | - | - |
| Chirchiq | 1 917,6 | 20,4 | 263,4 |
| Yangiyoʻl | 559,0 | 17,7 | 161,2 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Oqqoʻrgʻon | 698,4 | - | 27,9 |
| Ohangaron | 2 474,2 | - | 282,5 |
| Bekobod | 254,8 | - | - |
| Boʻstonliq | 1 642,7 | 371,3 | 644,7 |
| Boʻka | 2 340,1 | - | - |
| Quyi Chirchiq | 933,8 | 288,6 | 422,4 |
| Zangiota | 1 030,5 | 320,3 | 2,3 |
| Yuqori Chirchiq | 1 942,3 | - | 172,6 |
| Qibray | 819,4 | 62,3 | 102,4 |
| Parkent | 660,7 | 14,9 | 531,8 |
| Piskent | 2 126,0 | - | 1 403,1 |
| Oʻrta Chirchiq | 613,6 | - | 6,4 |
| Chinoz | 638,8 | 104,2 | 70,9 |
| Yangiyoʻl | 1 442,8 | 318,4 | 455,0 |
| Toshkent | 916,3 | - | - |

Toshkent viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar



6. Toshkent viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

2025- yil yanvar-iyun oylarida jami **980,6** ming kv.m turar-joylar ishga tushirilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan **105,1 %** ni tashkil etdi.

Shundan **707,5** ming kv.m turar-joylar qishloq joylarda qurilgan.

Hududlar kesimida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish


| | Turar-joylar, ming kv.m | Ulardan: qishloq joylarda ming kv.m | Suv tarmogʻi, km | Gaz tarmogʻi, km |
|--------------------------|----------------------------|--|------------------------|------------------------|
| Viloyat boʻyicha: | 980,6 | 707,5 | - | - |
| <i>shaharlar:</i> | | | | |
| Nurafshon | 20,1 | - | - | - |
| Olmaliq | 28,5 | - | - | - |
| Angren | 17,4 | - | - | - |
| Bekobod | 13,8 | - | - | - |
| Ohangaron | 13,6 | - | - | - |
| Chirchiq | 28,8 | - | - | - |
| Yangiyoʻl | 11,9 | - | - | - |
| <i>tumanlar:</i> | | | | |
| Oqqoʻrgʻon | 20,8 | 16,0 | - | - |
| Ohangaron | 20,9 | 20,9 | - | - |
| Bekobod | 12,0 | 10,5 | - | - |
| Boʻstonliq | 72,3 | 62,1 | - | - |
| Boʻka | 18,8 | 11,0 | - | - |
| Quyi Chirchiq | 30,3 | 20,9 | - | - |
| Zangiota | 71,6 | 68,9 | - | - |
| Yuqori Chirchiq | 92,1 | 92,1 | - | - |
| Qibray | 118,5 | 86,2 | - | - |
| Parkent | 52,0 | 33,8 | - | - |
| Piskent | 31,8 | 12,7 | - | - |
| Oʻrta Chirchiq | 70,5 | 66,2 | - | - |
| Chinoz | 27,1 | 17,8 | - | - |
| Yangiyoʻl | 65,6 | 64,2 | - | - |
| Toshkent | 142,3 | 124,2 | - | - |

7. Toshkent viloyatida bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-iyun oylarida, Toshkent viloyatida jami **16 793,3** mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan **118,3 %** ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi


(yanvar-iyun oylarida)



Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmi

| | Hajmi, mlrd so'm | O'sish sur'ati, % da | shu jumladan, aholi jon boshiga | |
|--------------------------|---------------------|-------------------------|------------------------------------|-------------------------|
| | | | hajmi, ming so'm | o'sish sur'ati, % da |
| Viloyat bo'yicha: | 16 793,3 | 118,3 | 5 380,2 | 116,2 |
| <i>shaharlar:</i> | | | | |
| Nurafshon | 491,3 | 111,7 | 8 485,4 | 108,5 |
| Olmaliq | 2 784,9 | 174,0 | 18 640,6 | 170,1 |
| Angren | 296,4 | 106,5 | 1 591,7 | 104,4 |
| Bekobod | 350,3 | 110,6 | 3 292,2 | 108,4 |
| Ohangaron | 141,7 | 114,0 | 3 358,9 | 112,0 |
| Chirchiq | 889,3 | 107,1 | 5 046,8 | 104,9 |
| Yangiyo'l | 339,4 | 112,3 | 3 874,2 | 109,5 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | |
| Oqqo'rg'on | 351,4 | 151,0 | 3 071,9 | 148,0 |
| Ohangaron | 299,2 | 126,4 | 2 638,3 | 124,1 |
| Bekobod | 108,8 | 113,2 | 644,3 | 111,4 |
| Bo'stonliq | 672,0 | 112,6 | 3 766,7 | 111,6 |
| Bo'ka | 220,3 | 110,5 | 1 605,8 | 108,5 |
| Quyi Chirchiq | 606,0 | 112,3 | 5 131,4 | 110,1 |
| Zangiota | 886,9 | 114,2 | 5 016,4 | 110,9 |
| Yuqori Chirchiq | 767,6 | 111,3 | 5 394,2 | 109,3 |
| Qibray | 960,2 | 112,3 | 5 349,2 | 110,2 |
| Parkent | 415,9 | 108,9 | 2 276,7 | 106,6 |
| Piskent | 229,2 | 118,0 | 2 210,0 | 115,9 |
| O'rta Chirchiq | 439,4 | 119,9 | 3 114,4 | 117,3 |
| Chinoz | 195,9 | 110,5 | 1 317,2 | 108,6 |
| Yangiyo'l | 766,7 | 112,2 | 3 743,7 | 109,8 |
| Toshkent | 783,9 | 114,6 | 3 816,4 | 112,0 |
| Yashirin iqtisodiyot | 3 796,6 | 105,5 | - | - |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



2025- yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi **67,6 %** ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan **97,1 %** ni tashkil etdi;


- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi **19,2 %** ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan **28,1 %** ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi **13,2 %** ulushni va 2024- yilning mos davriga nisbatan **3,2** barobarga oshgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar kesimida qurilish ishlari

| | Bino va inshootlar qurilishi | Fuqarolik obyektlari qurilishi | Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari |
|---|------------------------------|--------------------------------|--------------------------------------|
| Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm | 3 220,3 | 378,3 | 37,6 |
| <i>o'sish sur'ati, % da</i> | <i>2,3 m.</i> | <i>27,1</i> | <i>96,7</i> |
| Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm | 2 998,6 | 2 853,5 | 2 167,3 |
| <i>o'sish sur'ati, % da</i> | <i>56,3</i> | <i>53,6</i> | <i>3,3 m.</i> |
| Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm | 5 137,7 | - | - |
| <i>o'sish sur'ati, % da</i> | <i>103,4</i> | - | - |

Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025- yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi **3 636,2** mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan **195,3 %** ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi **21,6 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **47,8 %** ga to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan **108,7 %** ni tashkil etgan holda **8 019,4** mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi **33,6 %** ni yoki **5 137,7** mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan **103,4 %** ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

| | Hajm, mlrd so'm | | | O'sish sur'ati, % da | | |
|--------------------------|-----------------|----------------------|-----------------|----------------------|----------------------|-----------------|
| | Yirik | Kichik va mikrofirma | Norasmiy sektor | Yirik | Kichik va mikrofirma | Norasmiy sektor |
| Viloyat bo'yicha: | 3 636,2 | 8 019,4 | 5 137,7 | 195,3 | 108,7 | 103,4 |
| <i>shaharlar:</i> | | | | | | |
| Nurafshon | 42,7 | 401,6 | 47,1 | 5,8 m. | 100,6 | 142,2 |
| Olmaliq | 2 569,0 | 147,8 | 68,1 | 2,5 m. | 28,6 | 113,8 |
| Angren | 45,1 | 206,8 | 44,5 | 3,2 m. | 93,8 | 101,7 |
| Bekobod | 3,4 | 309,3 | 37,6 | 4,6 m. | 158,6 | 78,1 |
| Ohangaron | 10,3 | 97,7 | 33,7 | 104,5 | 114,8 | 115,0 |
| Chirchiq | 89,8 | 725,3 | 74,1 | 169,1 | 98,6 | 180,8 |
| Yangiyo'l | 0,6 | 306,7 | 32,1 | 84,9 | 112,4 | 111,6 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| Oqqo'rg'on | 169,8 | 138,1 | 43,5 | - | 79,9 | 71,7 |
| Ohangaron | - | 246,7 | 52,4 | - | 145,3 | 86,2 |
| Bekobod | 2,6 | 74,6 | 31,6 | 36,2 | 141,0 | 87,2 |
| Bo'stonliq | 69,3 | 434,5 | 168,2 | 62,7 | 118,2 | 142,6 |
| Bo'ka | 9,6 | 166,3 | 44,4 | 23,4 | 178,4 | 67,7 |
| Quyi Chirchiq | 4,1 | 536,4 | 65,5 | - | 113,3 | 98,4 |
| Zangiota | 164,4 | 555,8 | 166,7 | 30,1 m. | 97,5 | 82,3 |
| Yuqori Chirchiq | 31,2 | 535,3 | 201,1 | 81,3 | 97,0 | 2,1 m. |
| Qibray | 157,2 | 517,2 | 285,8 | 59,0 | 188,9 | 90,5 |
| Parkent | 27,4 | 274,4 | 114,1 | 33,0 m. | 81,1 | 2,8 m. |
| Piskent | 3,4 | 156,1 | 69,7 | 18,0 | 143,9 | 103,7 |
| O'rta Chirchiq | 5,3 | 276,4 | 157,7 | - | 115,7 | 123,7 |
| Chinoz | 2,4 | 131,7 | 61,8 | 144,3 | 157,3 | 66,5 |
| Yangiyo'l | 15,8 | 609,6 | 141,3 | 111,5 | 109,7 | 124,9 |
| Toshkent | 3,7 | 422,1 | 358,1 | 72,3 | 2,0 m. | 75,5 |
| Yashirin iqtisodiyot | 209,1 | 749,0 | 2 838,6 | 129,8 | 108,1 | 103,4 |

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Parkent tumanida (2024- yilning mos davriga nisbatan **33,0 m.**), Zangiota tumanida (**30,1 m.**) va Nurafshon (**5,8 m.**) shahrida qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Toshkent (2024- yilning mos davriga nisbatan **2,0 m.**), Qibray (**188,9 %**) va Bo'ka (**178,4 %**) tumanlarida kuzatildi.

8. Asosiy kapitalga investitsiyalar va qurilish ishlari bo'yicha usbuliy tushuntirishlar

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarga barcha turdagi qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarni montaj qilish bo'yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo'jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bu – korxonaga to'liq egalik qiluvchi yoki korxonalar aksionerlik kapitalining 10 % dan kam bo'lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya'ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar yangi va import orqali xarid qilingan asosiy vositalarni o'z ichiga oladi. Bularga: ularning boshlang'ich qiymatini oshirishga olib keladigan yangi qurilish, kengaytirish, obyektlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun ketgan xarajatlar, mashinalar, asbob-uskunalar, transport vositalari, yer holatini yaxshilash uchun xarajatlar, geologik qidiruv ishlariga, asosiy podani shakllantirishga va ko'p yillik o'simliklarni o'tkazishga ketgan xarajatlar kiradi.

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari;
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.